

ATMOSFERA HAVOSIGA CHIQRILAYOTGAN TASHLANMALAR TAHLILI

Hamidov A.S.

Katta o'qituvchi

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, hozirgi vaqtda eng global muommolardan biri hisoblangan atrof–muhitga chiqarilayotgan tashlanmalarning yildan yilga ko'payib borishi, buning natijasida atmosfera havosining ifloslashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar va yechimlari keltirilgan.*

Аннотация. *В этой статье представлены ситуации и решения, которые в настоящее время являются одной из самых глобальных проблем, увеличивая выбросы из года в год, что может привести к загрязнению воздуха.*

Abstract. *In this article presents the situations and solutions that are currently one of the most global problems, increasing emissions from year to year, which can lead to air pollution.*

Toza ekologik atrof-muhitsiz na sog'lom jamiyat, na yetuk inson bo'la oladi. Afsuski hozirgi vaqtda O'zbekistondagi ekologik jarayonini xalqning sog'ligini yomonlashishida, tabiatdagi o'zgarishlar salbiy ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistondagi ekologik jarayon krizis darajada ko'tarilgan. Bunga asosan, atmosfera havosi sabab bo'lgan. Atmosfera ifloslanishining 79% transport vositalari sabab bo'ladi. Havoning ifloslanishi kattalar va bolalar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Butun dunyo mintaqasida 36% bolalarning turli hil xronik kasalliklarga chalinishiga atmosfera havosidan zaharlanish sabab bo'lmoqda [1].

Atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmi avtomobil dvigateli va yonilg'isiga bog'liq. 1ta yengil avtomobil kun mobaynida 7000 grammgacha chang va turli hil zararli gazlarni atmosferaga chiqaradi. Bu gazlar tarkibida azot oksidi, uglerod oksidi, uglevodorod, oltingugurt borligi aniqlangan. Dunyo aholisining 50%dan ortig'i ekologik toza rayonda yashash uchun zavod va fabrikalardan uzoqroq shaharlarda yashashga harakat qilishadi. Ammo shaharda havodan ifloslanish darajasi qishloqnikidan 89% katta. Chunki shaharda havoning ifloslik normativlari ruhsat etilgan normadan oshadi. Shu o'rinda Toshkentdagi 39% kasalliklar nafas olish organlariga bog'liq, bu esa atmosferaning ifloslik darajasi yuqori ekanini ko'rsatadi [2].

Shaharlardagi ifloslanish darajasini 80%ni avtomobillar yuzaga keltiradi. Avtomobillar tufayli biz har kuni ozon, formaldegid, azot dioksididan nafas olyapmiz. Ozon- zaharli gaz hisoblanadi. U nafas yo'llarini qisib qo'yishi ham mumkin. Shuningdek, ozon vaqtdan oldingi o'limga ham sabab bo'lishi mumkin.

Tabiat uchun zararli bo'lgan yonilg'ida yuradigan mashinalar kislorodni yutib, karbonat angidrid, suv bug'i va turli hil zaharli gazlarni atmosferaga chiqarib tashlaydi. Havoning transport orqali ifloslanishi quyidagicha: 85% yengil va yuk mashinalar orqali, 5% suv kemalariga, 4% havo va temiryo'lga va eng kam ko'rsatkich qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi [3].

Yonilg'ilar hammasi xavfli sanaladi. Ular orasida eng havfsizini gaz deiyshimiz mumkin. 500 km masofani bosib o'tgan avtomobil, inson bir yil mobaynida nafas olishi mumkin bo'lgan kislородni yutadi va is gazi hamda boshqa zararli moddalar tarkibida qayta havoga chiqaradi. 1 tonna dizel yonganda havoga 9 kg uglerod oksidi chiqariladi. U bronxit, gaymorit, pnevmaniya va boshqa turli hil kasalliklarni yuzaga chiqaradi.

Avtomobil g'ildirak rezina balonlarining yemirilishi natijasida bir yilda atmosfera havosiga o'n- o'n ikki ming kilogrammgacha rezina changi chiqadi. Toshkent, Moskva, Erevan, Nyu-york kabi shaharlar havosidagi is gazi va changning miqdori ruhsat etilgan normadan 7-12 barobar kattadir [4].

Avtomashinalardan chiqayotgan zararli gazlar orasida benzapiren ham bo'ladi. U birinchi darajali xavfli modda. Uglevodorodli yonilg'i yonganda hosil bo'ladi. Benzapiren inson uchun kam miqdori ham juda xavfli. Zaharli moddalar atmosferaga chiqarilmasligi va to'planmasligi uchun mashinalar 40-60 km/s da harakatlanishi kerak. Shundagina yoqilg'i butunlay yonadi. Bir yilda atmosferaga 16,9% benzipiren chiqariladi. Toshkent aholisi esa 3 marta yo'l qo'ysa bo'ladigan benzipiren bilan nafas oladi.

Bundan tashqari avtomobil qizishi natijasida yer harorati 1,5-3,0 °C ga isiydi. Avtomashinalarda ko'p yuradigan haydovchilar doim havf ostida bo'ladi, chunki tashqariga chiqarilayotgan zararli moddalar mashina salonlarida ham saqlanib qoladi. Ularda takrorlanayotgan yo'tal, shamollash, bosh og'rig'i, asab tizimini buzilishi is gazidan zaharlanishi orqali bo'lishi mumkin [4].

Ekologiyani muhofaza qilish ohirgi 10 yilda jadallashdi. Bunda ekologiyaning buzilishi yaqqol sababdir. Shu o'rinda poytaxtimiz Toshkent havosi haqida to'xtalib o'tsak, bunda biz hal qilishimiz kerak bo'lgan masalalar ko'p. Dunyo shaharlar havo sifati indeksida eng sifatsiz va yaroqsiz havo reytingida Toshkent 2-o'rinni egalladi. Bunga sabab transport va qishloq ho'jaligining modernizatsiyalash jarayoni sekin o'tishi, poytaxtdagi avtomobillarning 85% dizel yoqilg'isida yurishi va hokazolar sabab bo'ladi.

Transportdan so'ng havoni eng ifloslovchi tarmoq sanoat hisoblanadi. Ular orasida elektronika, qora va rangli metallurgiya, neft va neftni qayta ishlash sanoati kiradi. Sanoat tarmoqlari maydonida havoda sezilarli miqdorda fenollar, uglevodorodlar, oksidlar mavjud.

Har yili havoning ifloslanishi tufayli 7 million kishi vafot etadi. shularning 90% kam daromadli xalqi bor mamlakatlarga to'g'ri keladi. ularga Afrika, Osiyo davlatlarini misol keltirish mumkin.

Agar avtomobil uglevodorodli yonilg'ida ishlaganda tevarak atrof uchun havfsiz bo'lardi. Chunki u uglerod gazi va suv bug'iga aylangan bo'lardi. O'rtacha hisobda bir kichik shaharchada kuniga 1656 ta avtomashina, haftasiga esa 51336 ta, bir yilda esa 616032 ta mashina o'tadi. Demak 1 sutkada atmosferaga ~1,15 kg is gazi, uning tarkibida ~0,0345 kg boshqa turdagi gazlar va ~0,006 kg azot oksidi chiqariladi. Bir yilda esa ~427,8 kg azot oksidi chiqadi [5].

Ekologiyani asrash uchun Yevropaning turli davlatlari elektromobil, suvda ishlovchi mashinalar, quyosh batareyasida ishlovchi bir qator mashinalar loyihalari ishlab chiqilgan va hozirda bu mashinalarni Yevropa ko'chalarida uchratish mumkin.

Elektromobil- bu avtomobil bir necha elektrodvigatel orqali ishlaydi. Bularga

elektrokar, elektrobuslar misol bo'ladi.

Suvda ishlovchi avtomobil faqat suv harakatidan energiya oladi. Shu o'rinda aytib o'tish keraki, rivojlangan davlatlarda 2030 yilgacham dizel yonilg'isida ishlovchi mashinalar qolmasligi haqida turli hil memarandumlar o'tkazishmoqda. Hozirda u yerda modernizatsiyalash darajasi baland.

Bizning yurtimiz Toshkentda ham sinov tajriba tariqasida bir necha elektrokarlar va elektrobuslar bor. Ular turli hil usulda quvvat oladi. ohirigacham quvvatlangandan so'ng ular 50 km masofa bosib o'ta olishadi. Yurtimizni shunday modernizatsiyalash ekologiyani himoya qilish, atmosfera havosini toza tutish, shuningdek, iqtisodga ham katta foyda keltirmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. A. Q. Qudratov. "Sanoat ekologiyasi". Darslik 246 -249 b Toshkent – 2012.
2. A.Q.Qudratov. "Охрана окружающей среды на предприятиях" Учебник Toshkent – 2010
3. "Mehnat muhofozasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent, 22-sentabr 25-26 Toshkent 2016 y.
4. Green W.M. "The microbial ecology of a Mediterranean chlorinated drinking water distribution systems in the city of Valencia" Volume 37, Issue 7, 18 September 2019, Pages 634-648, Department of Counseling, Administration, Supervision, and Adult Learning, Cleveland State University, Cleveland, OH, United States.
5. Jiang C, Zhang H "Ecological restoration is not sufficient for reconciling the trade-off between soil retention and water yield: A contrasting study from catchment governance perspective" Volume 45, Issue 8, 21 September 2020, Pages 339-348, Department of Counseling, Administration, Supervision, and Adult Learning, Cleveland State University, Cleveland, OH, United States.